



MAQOMSHUNOS IS'HOQ RAJABOV ILMIY IJODIGA BIR NAZAR

Iskandarova Dilnoza

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy Musiqa san'ati instituti
"An'anaviy cholg'u ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: XX asr o'zbek mumtoz musiqa san'atida ilmiy izlanishlar jadal olib borilgani barchaga ma'lum, ushbu davr maqomshunoslik ilmida Is'hoq Rajabovning ahamiyati beqiyos. Taqdim etilgan maqolada maqomshunos olim Is'hoq Rajabov va uning ilmiy faoliyati, "Maqomlar" monografiyasi haqida to'liq sharh bayon etilgan.

Kalit so'z: maqomlar, olim, mumtoz, musiqa, bastakor, shashmaqom, usul, ritm, maqomshunos, kuy, ashula.

Har bir xalq o'ziga xos tarixiy hayot tarzi, etnik qadriyatlari va an'analarini ifoda etuvchi manbalarga ega bo'lib, bular avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan madaniy yodgorliklardir. O'zbek xalqining milliy madaniy merosining ajralmas qismi hisoblangan mumtoz musiqa, xalq ijodiyoti va folklor namunalaridan iborat bo'lib, ayniqsa, O'zbekiston hududidagi turli etnik guruhlarining mahalliy musiqiy uslublari va kuy-qo'shiqlari bugungi kunda ko'plab musiqashunoslar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilmoqda va shu bilan milliy musiqiy merosimizning hajmi kengayib bormoqda. O'zbekiston hududida turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan ustoz san'atkorlar va olimlarning mumtoz musiqa san'atiga qo'shgan hissalar beqiyosdir.

O'zbek mumtoz musiqa san'atini ilmiy o'rganilishda musiqashunos olimlarning ahamiyati katta. Jumladan, XX asr o'zbek musiqa san'ati tarixida, atoqli maqomshunos olim Is'hoq Rajabovning ahamiyati katta. Is'hoq Rajabov o'zbek mumtoz musiqa san'ati bo'lmish maqomlarni ilmiy asoslagan, nazariy sharxlagan birinchi maqomshunos olimlardandir. Uning ilmiy merosi hisoblanmish "Maqomlar masalasiga doir", "Maqom asoslari", "Maqomlar" kitoblari bugungi kunda ham maqomlarni o'rganishda dast-urul amal vazifasini o'tamoqda. Is'hoq Rajabov – san'atshunoslik fanlari doktori, professor,



musiqashunos olimdir. Uning maqomshunos olim bo'lib yetishishida, otasi Risqi Rajabiy, amakisi Yunus Rajabiyning o'rni beqiyosdir. Is'hoq Rajabov 1927-yil Toshkentda taniqli san'atkorlar oilasida tavallud topgan. Is'hoq Rajabov bolaligidan musiqaga qiziqan. Rajabiylar sulolasi vakili sifatida, Is'hoq Rajabov sozandalik an'analari dutorda va tanbur ijrochiligini Rizqi va Yunus Rajabiylardan o'zlashtirgan. Is'hoq Rajabov Sharqshunoslik Institutining Fors tili fakultetini tamomlaydi. U Rudakiydan to G'afur G'ulomgacha bo'lgan O'zbek va Tojik shoirlari ijodini mukammal o'rganadi. I.Rajabov dutor tanbur cholg'u sozlarini mohirona ijro etardi va o'zbek xalq qo'shiqlari hamda maqom namunalarini ham ijro etgan.

Is'hoq Rajabov e'tiborini sharq xalqlari musiqasini ilmiy o'rganishga qaratadi. Shu bois Aspiranturaga o'qishga kirib A.Semenov rahbarligida o'rta asrlar davri va sharq uyg'onish davri risolalari bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. 1961 yilda yosh olim San'atshunoslik institutida yetakchi tadqiqotchi olim sifatida faoliyat yuritadi.

Institutda o'zbek mumtoz musiqasi bo'lmish maqomlar, bastakorlar ijodiyoti kabi masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib boradi. Shu yillari ilmiy jurnalda chop etilgan "Sharq musiqa notasi tarixi" haqida nomli maqolasi shov-shuvlarga sabab bo'lib, ilk marta xalqaro jamiyat tomonidan ilmiy kashfiyotning dolzarbligi tan olinib, bu musiqiy nota tushunchasi sharqda ham mavjud bo'lganligini isbotlab beradi.

"Maqomlar" ilmiy monografiyasi Is'hoq Rajabovning dissertatsiyasining kitob shakliga keltirilgan ko'rinishidir. Ushbu monografiyaning nashr etilishida, maqomshunos olim Oqilxon Ibrohimovning mehnati singan. Kitob YUNESKO va Markaziy Osiyo mumtoz musiqasi – Shashmaqomni asrash bo'yicha Yaponiya Trast Jamg'armasining hamkorlikdagi loyihasi asosida nashrga tayyorlangan. Nashrga tayorlovchi va maxsus muharrir – Oqilxon Ibrohimovdir. Tahrir hay'ati





– Fayzullo Karomatli, Akmal Rajabov, Ravshan Yunusov. Kitob 2006 yili San’at nashriyotida 1000 nusxada chiqarilgan.¹

Ushbu kitob ikki qismdan iborat: birinchi qismda quyidagi mavzular yoritilgan;

O’rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixi haqida (ushbu paragrafda o’rta asr musiqa madaniyati, allomalarning musiqaga bag’ishlangan kitoblari, Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyatining rivoji mavzulari yoritilgan).

O’tmishda bastakorlik san’atining ba’zi masalalari va kuy shakllari haqida. (Bu paragrafda bastakorlik an’alarini shakllanishi, maqom turkumlarining rivojlanishi, bastakorlik san’atining rivojlanishi, o’rta asr bastakorlarning nomi va ularning professional musiqadagi o’rni, kor, qavl, amal, peshrav, oviza, savt, rixta, saj, zarbayn atamalariga ta’rif, Shashmaqomning notaga olinishi haqida bayon etilgan)

Maqomlarning nazariy asoslari. (Ushbu paragrafda va o’rta asr allomalarning risolalariga asoslanib, musiqiy tovushning paydo bo’lishi, nag’ma, intervallar tarkibi, ritm, jam, jinslar haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek Ud cholg’usi va uning tovush qatori va pardalarining joylashishi yoritilgan.

Maqom nima? (Maqom atamasining ma’nosi, uning turli davrlarda qay ma’noda ishlatigani, o’rta asr risolalarida maqom atamasining ta’rifi, maqom doyralarining oddiy chizmalardagi ifodasi, o’n ikki maqomning shakllanishi bayon etiladi.)

O’n ikki maqom tizimi. (O’n ikki maqom tizimi, ushbu tizimni shakllanishida Safiuddin Urmaviyning olib borgan izlanishlari, o’n ikki maqomning tarkibiy qismi, o’n ikki maqom, olti ovoza, yigirma to’rt sho’balarning har birining kelib chiqishi, nazariy asoslari tovush qatorlari sentlar orqali ifoda etilgan. *O’n ikki maqom va Shashmaqom.* (O’n ikki maqom va Shashmaqomning bog’liq xususiyatlariga bag’ishlangan mavzuda.

Kitobning ikkinchi qismida quyidagi mavzular yoritilgan:

¹ Is’hoq Rajabov . Maqomlar. O.Ibrohimov tahriri ostida. “San’at” nashriyoti. Toshkent 2006-yil.



Shashmaqom. (Shashmaqomning shakllanishi, tarkibiy qismlari, olti maqomning lad qiyofasi haqida bayon etilgan.)

Shashmaqomning cholg'u bo'limi. (Ushbu bobda Shashmaqomning cholg'u bo'limiga kirgan, asosiy tasnif, tarje, gardun, muhammas va saqil qismlarining o'ziga xos ko'rinishi, xona bozgo'y tushunchasi, uning maqom cholg'u bo'limidagi ahamiyati, usullari batafsil yoritilgan.)

Shashmaqomning ashula bo'limi. (Shshmaqomning nasr qismi haqida umumiy ma'lumotlar bayon etiladi.)

Namudlar haqida . (Ushbu paragrafda Is'hoq Rajabovning uzoq ilmiy izlanishlarining samarali natijalaridir. Namudlarning nazariy asoslari, Shashmaqom tarkibiga kirgan namudlarning ko'rinishi xususan, Namudi Uzzol, Namudi Muhayyari Chorgoh, Namudi Navo, Namudi Bayot, Namudi Ushshoq, Namudi Oraz, Namudi Segoh larning ko'rinishi batafsil yoritilgan. Shuningdek ikkita avj, Zebo pari va Turk avjlari haqida ham ma'lumot berilgan. Eng muhim tomoni qaysi sho'bada qanday namuddan foydalanilgani, taktlar xajmi betlari bialn ko'rsatilgan jadval ham kiritilgan).

Shashmaqom ashula bo'limining birinchi guruh sho'balari. (Ushbu bo'limda birinchi guruhning asosi sho'balari bo'lmish Saraxbor, Talqin, Nasr, Ufar qismlari. Ularning usullari, olti maqomdagi ko'rinishi. Tarona, suporishning ko'rinishi, sho'ba shakli haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'balari. (Ushbu paragraf Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'balari savt va mog'ulchalarga bag'ishlangan bo'lib, ularning tarkibiy qismlari talqincha, qashqarcha, soqiynoma, ufarlar haqida ularning shakli usuli, namudlari tog'risida batafsil ma'lumot berilgan. Savt atamasining kelib chiqishidan tortib Shashmaqomdagi ahamiyati, Mog'ulchalarning Shashmaqom tarkibiga kiritilishi va olti maqomdagi kelgan ko'rinishlari xarakteri musiqiy xususiyatlari to'liq bayon etilgan).

Xorazm maqomlari. (Xorazm maqomlarining shakllanishi, Xorazm tanbur chizigi, Xorazm maqomlari yortilgan kitoblar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.)



Xorazm maqomlarining chertim yo'llari. (Xorazm maqomlarining chertim yo'llari, Maqomi yoki Tanimaqom bilan boshlanuvchi tasnif qismlari, Tarje, Peshrav va ufar qismlari, usullari haqida ma'lumot berilgan).

Xorazm maqomlarining aytim yo'llari. (Ushbu paragrafda Xorazm maqomlarining aytim yo'li, Shashmaqomdan farqli jixatlari, Saraxbor, Talqinlar va ufar qismlari haqida ma'lumotlar berilgan).

Toshkent-Farg'onada mashhur bo'lgan maqom yo'llari. (Ushbu paragrafda Farg'ona-Toshkent maqom maqom yo'llarining shakllanishi, Bayot I-V, Chorgoh I-V, Dugohi Husayniy I-VII, Shahnozi Gulyorning tuzulishi tarkibiy qismlari, shashmaqom bilan o'xshash va farqli tomonlari bayon etilgan).

Shashmaqom ijrochilik masalasiga doir. (Maqom ijrochiligi uning xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan).

Shashmaqom va xalq ijodiyoti. (Ushbu paragrafda maqomlarning xalq musiqasi bilan hamohang ravishda rivojlangani, maqomlar asosida yaratilgan xalq kuy va ashulalari haqida ma'lumotlar berilgan).

Kitobda maqomlarning nazariy asoslari haqida ham to'liq va batafsil ma'lumot berilgan masalan, kuy, nag'ma, usul, lad, bod, jins, jam kabi atamalarning nazariy asoslari sharxlagan.

Xulosa qilib aytish joizki, "Maqomlar" ilmiy monografiyasi o'zbek xalqining memuar asarlaridan biriga aylangan. Ushbu monografiya musiqiy metodika, pedagogika asoslariga, manbashunoslikda, maqomshunoslik ilmida muhim ahamiyatga egadir. Ushbu ilmiy monografiya bugungi kunda ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida, O'zbekiston davlat konservatoriyasida, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutida maqom tarixi, o'zbek maqomi tarixi va nazariyasi, an'anaviy o'zbek musiqa asoslari fanlarida asosiy o'quv material bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Maqom mavzusida qanday dissertatsiya yoqlanmasin, o'quv-qo'lanmma chiqarilishidan qat'iy nazar, Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" ilmiy monografiyasi asosiy adabiyot vazifasini o'tab kelmoda.



Adabiyotlar ro'yxati;

1. Is'hoq Rajabov . Maqomlar. O.Ibrohimov tahriri ostida. "San'at" nashriyoti. Toshkent 2006-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
3. Is'hoq Rajabov. Maqom asoslari. Ikkinchi nashr. Nashrga tayyorlovchi R.Yunusov. "Yangi asr avlodi nashriyoti". Toshkent 2019-yil.